MOVARAUNNAHRLIK MUHADDISLARNING MINTAQA ILM MARKAZLARIDAGI FAOLIYAT

Quvvatova Maftunabonu Barot qizi
e-mail: mafonquva@gmail.com

Sharq Renessansi beshiklaridan biri bo‘lgan Movarounnahr mintaqasi islom sivilizatsiyasi va jahon fan tarixi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ilmiy markazlardan biridir. IX–XII asrlarda va undan keyingi davrlarda bu hududda shakllangan ilmiy muhit nafaqat aniq va tabiiy fanlar, balki umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ma’rifiy tafakkurning ham asosiy o‘chog‘iga aylandi. Xususan, islomshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, tilshunoslik, astronomiya, handasa, jug‘rofiya fanlari bilan birgalikda xattotlik, sahhovlik, lavvohlik sohalari rivoj topdi.

Sosoniylar davlati inqirozga yuz tutganidan so‘ng, Gundi Shopur akademiyasining ko‘plab ulamolari va qimmatli kutubxonasi Bag‘doddagi “Bayt al-hikma” (“Donishmandlik uyi”, VIII asr)ga ko‘chirilgan[1]. Ushbu buyuk jarayonda Abdulloh ibn Muqaffa va islom tarixidagi eng ma’rifatparvar vazirlar sulolasi sifatida tilga olinadigan Barmakiylar sulolasidan yetishib chiqqan yetuk mutafakkirlar muhim rol o‘ynagan.

O‘rta asr musulmon Sharqi madaniyati va ilm-fani taraqqiyotida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan bir qator ilmiy muassasalar Buzoro, Samarqand, Farg‘ona, Chosh va Kesh kabi nufuzli shaharlarda faoliyat yuritgan. Ushbu ilmiy maskanlar o‘z davrining ilmiy markazlari sifatida rivoj topibgina ilmiy salohiyatning boyishida ham katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu muassasalar orasida Bag‘doddagi “Bayt al-hikma”, Xorazmdagi “Majlis al-ulamo”

[1] Ataev M. Ustrushananing qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi (manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2021. – 24 b.

(Ma’mun akademiyasi, XI asr), Tabrizdagi akademiya (XIII asr) hamda Samarqanddagi Ulug‘bek maktab-rasadxonasi (XV asr) alohida o‘rin tutadi[2]. Bu kabi ilmiy markazlar o‘z davrinnig yetuk olim mutaffakkirlarini jamlagan ilm-fanning turli sohalaridagi yutuqlarni namoyon etgan, kitoblar yozish, tarjima,

“Bayt al-hikma”ning dunyo ilm-fanida tutgan o‘rnini belgilab beruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– Birinchisi, ilmiy merosni jamlash: yunon, hind va fors manbalaridan olingan nodir asarlar yig‘ilib, tizimli ravishda saqlangan;

– Ikkinchisi, tarjima faoliyati: yig‘ilgan asarlar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan arab tiliga tarjima qilingan, sharhlangan va tarqatilgan;

– Uchinchisi, ijodiy muhit: markazda o‘z davrining taniqli olim va mutafakkirlari – Muhammad al-Xorazmiy (167/783–236/850), Hunayn ibn Ishoq (193/809–259/873), Sobit ibn Qurra (211/826–288/901) kabi allomalar faoliyat yuritib, yangi ilmiy asarlar yaratganlar[3].

Natijada, “Bayt al-hikma” VIII–IX asrlarda nafaqat Islom olamining, balki butun dunyo ilm-fan taraqqiyotining muhim markazlaridan biriga aylandi. Bu markaz tarixi davomida “Bag‘dod ilmiy maktabi” yoki “Bag‘dod akademiyasi” sifatida ham mashhur bo‘lgan.

Marvon II ni 131/749 yili Abu-l-Abbos as-Saffoh (132/749–137/754) taxtdan ag‘darib, Umaviylar sulolasiga (41/661–133/750) chek qo‘ydi va Islom xalifaligi boshqaruvi Abbosiylar sulolasi (133/750–656/1258) qo‘liga o‘tdi[4]. Shu bilan xalifalikda yangi davr boshlandi. Abbosiylar ilk kunlardanoq davlat tuzilmasini mustahkamlash, madaniyat va ilm-fanni rivojlantirishga alohida e’tibor

[2] Munavvarov Z. Islom universitetidan xalqaro akademiya sari. “Islom ziyosi” jurnali, № 1. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyoti, 2019. – B. 9.
[3] Ataev M. Ustrushananing qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi (manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2021. – 29 b.
[4] Abduhalimov B. “Bayt al-hikma” va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – B. 35.

qaratdi. Ular hukmronlik markazini Shomdan (Damashqdan) Iroqqa ko‘chirib, 145/762 yilda xalifa al-Mansur asos solgan Bag‘dodni poytaxt deb e’lon qildilar.

Bag‘dod joylashuvi, tabiiy boyliklari va savdo yo‘llariga yaqinligi bilan tez orada nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ilm-fan, madaniyat va sivilizatsiya markaziga ham aylandi. Xususan, xalifalardan al-Mansur (136/754–158/775), Horun ar-Rashid (170/786–193/809) va al-Ma’mun (198/813–218/833) ilm-fan, falsafa, tibbiyot va tarjima ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdilar. Xususan, al-Ma’mun tashabbusi bilan Bag‘dodda tashkil etilgan “Bayt al-hikma” ilm-fan markaziga aylandi. Bu yerda yunon, suriyoniy, fors va hind tillaridagi qadimiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Platon, Aristotel, Galen, Evklid, Ptolemey kabi yunon mutafakkirlarining asarlari musulmon olimlariga ma’lum bo‘lib, ularning ilmiy merosi yanada rivojlantirildi. Bu muhitda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (167/783–236/850) (matematika va astronomiya), Abu Bakr ar-Roziy (251/865–313/925) (tibbiyot va kimyo), Ahmad al-Farg‘oniy (182/798–247/861) (astronomiya), Ya’qub ibn Ishoq al-Kindiy (185/801–259/873) (falsafa, matematika, kimyo), Abu Nasr al-Forobiy (258/872–339/950) (falsafa, mantiq, musiqa) va boshqa ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqdi. Bag‘dod o‘z davrida dunyodagi eng yirik kutubxonalar, rasadxonalar va ilmiy muassasalarga ega bo‘ldi.

Abbosiylar xalifaligi davri (133/750–656/1258)da ilm-fan, adabiyotshunoslik, falsafa va madaniyat sohalariga atroflicha e’tibor qaratildi. Xususan, tarjima faoliyati, bilim maskanlarining tashkil etilishi va olimlarning ilmiy faoliyatining rag‘batlanishi Islom dunyosida ilm- ma’rifatning yoyilishiga zamin yaratdi. Bu jarayon Islom sivilizatsiyasi tarixida “Oltin asr” deb nom olgan tarixiy davrni vujudga keltirdi. Bu davrda musulmon dunyosida ilmning barcha sohalari: matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, geografiya, falsafa va adabiyot kabi fan sohalarida ulkan beqiyos imkoniyatlarga ega bo‘lindi.

Abbosiylar xalifaligi davrida ilm-fan taraqqiyoti, jumladan, qo‘lyozma asarlarni saqlash va targ‘ib qilish sohasida jadal o‘zgarishlar kuzatildi. Agarda

Umaviylar zamoni (41/661–133/750)da ham qo‘lyozmalarni jamlash odati mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Abbosiylardan xalifa al-Mansur davridan boshlab bu jarayon markazlashgan, tizimli va doimiy xarakter kasb eta boshladi[5]. Manbalarninglarning ham sifati, ham miqdori sezilarli darajada ko‘paydi.

Xulosa qilib aytganda, IX–XI asrlar Sharq xalqlari ilm-fani va madaniyatining taraqqiyotida chinakam Uyg‘onish davri bo‘lib, bu davr ilm-fanining yuksalishi bevosita Markaziy Osiyo mutafakkirlarining samarali ilmiy-ijodiy faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, geografiya, tilshunoslik, islomiy fanlar, shuningdek, adabiyot va musiqa kabi ko‘plab fundamental hamda amaliy fan tarmoqlarida ulkan nazariy kashfiyotlar qilindi. “Bayt al-hikma” kabi yirik ilmiy markazlarning faoliyati ilm-fanning umumbashariy xususiyat kasb etganini ko‘rsatib, bu jarayonda Movarounnahr va Xuroson zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalarning o‘rni beqiyos ekanini namoyon etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduhalimov B. “Bayt al-hikma” va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – B. 35.
2. Ataev M. Ustrushananing qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi (manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2021. – 347 b.
3. Hasanov H. O‘rta osiyolik al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobiy va boshqa mutafakkirlarning ilm-fan rivojidagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix (To‘la tarix). / Tarjimon va mas’ul muharrir A.O‘rinboyev. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
5. Kattaev K. Movarounnahr ilmiy va ma’naviy markazlari tarixi. – Samarqand: Zarafshon, 2015.

[5] Ataev M. Ustrushananing qadimgi va birinchi renessans davrlari tarixi (manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2021. – 29 b.

6. Munavvarov Z. Islom universitetidan xalqaro akademiya sari. “Islom ziyosi” jurnali, № 1. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyoti, 2019. – B. 9.